

Chap oyog'inda kutilmaganda dahshatli og'rinqi his qilgan paytimda Brodveydag'i Mindi restoranida edim. Og'riqqa chidolmay o'rnimdan sakrab turdim va boloxonador qilib so'kindim.

Menga "parovozcha" o'rnatishganini va shu atrofda hazilkash Jo-turli hazillar ustasi turganligini sezdim.

"Parovozcha" nimaligini bilmochimisiz? Restoranga kirgan odamning poyabzali ustiga gugurt chaqib qo'yasiz. Shu zahoti hammani kuldiradigan voqeа boshlanadi.

Hazilkash Jo bu borada ustasi farang bo'lib ketgan. U "qurban" yoniga shunday sezdirmasdan keladiki, qasam ichib aytishim mumkin: Jo hatto sichqonning oyog'iga ham "parovozcha" qo'ya oladi, albatta sichqonning poyabzali bo'lса. Agar birortasi ortiqcha jahlg'a minsа ham u vaziyatdan chiqib keta oladi. Qimmatbaho poyabzal kiyganlar esa tez-tez u bilan jiqlashib turishadi. Ammo Joga kimning qanaqa poyabzalda kirganligining farqi yo'q. Bir kuni u shaxsan qaysar Frenkiga "parovozcha" qo'yanida ko'pchilikning ko'nglidan bir fikr o'tdi: bu yaxshilikka olib kelmaydi.

...Qaysar Frenki Bruklinda yashaydi, u bu yerda anchagina hurmatli odam. Har qalay unga bunaqa hazillarni qilish to'g'ri kelmaydi. Buning ustiga Frenkida hazil tuyg'usidan asar ham yo'q, uning kulganini hali hech kim eshitmagan. Frenki Brodveyda bronkslik allaqanday kishilar bilan gaplashib turganida Jo unga "parovozcha" uyuشتirdi. Albatta u kulgani yo'q, aksincha, Joga qahr bilan tikildi va italyanchalab nimadir dedi.

Qaysar Frenkining haqiqiy familiyasi italyancha, Ferochcho deganga o'xhash bo'lib, uni asli sitsiliyalik deb eshitgandim. U Bruklinda anchadan buyon yashaydi. Frenki ishni mayda sotuvchilikdan boshlagan bo'lib, hozir yirik savdogarga aylangandi. Uning yoshi o'ttizdan o'tgan, sochlari qop-qora, nigohi kishiga o'tkir boqardi.

Hech kim u haqda bundan ortiq narsa bilmaydi.

Jo unga hazil qilganida men g'alati bo'lib ketdim. Nazarimda, Frenki bu hazilni haqorat deb tushungan va butun Garlemdagilarga o'chakishib qolgandi.

Joga haddidan oshib ketganligini aytishganida esa u kulib qo'ygandi, xolos. Frenkida hazil tuyg'usining yo'qligi Joning aybi emas ekan. U qulay payt kelsa bu hazilini yana takrorlashini ham qistirib o'tgandi...

Men haq bo'lib chiqdim: yonimda hazilkash Jo turar va qornini changallagancha kulardi. Eng yomoni, unga qo'shilib bir guruh bekorchilar ham kulishar, Jo atrofda hech kim yo'qligida hazil qilmasdi.

U bilan ko'rishgani qo'l uzatdim. Shu zahoti yana gumburlagan kulgi ovozlari yangradi, Joning men bilan so'rashgan qo'lida yumshoq va yopishqoq pishloq bo'lagi bor ekan.

O'lganimning kunidan iljaydim. Jo qo'lidagi pishloq qoldig'ini restoran burchagida turgan mashina oynasiga artganida esa chin ko'ngildan xoxoladim.

Jodan akasi ikkoviga tegishli pivoxonada ishlar qanday ketayotganligini so'ravdim. U ishlar joyida ekanligini aytdi. Keyin esa uning xotini va mening eski tanishim Roza haqida so'ravdim: uni "Xot Boks" barida qo'shiq aytgan paytidan beri bilardim.

Roza haqidagi savolimni eshitgan Jo xitob qildi:

-Bergan savolining qara-yu! Eshitmadingmi? U meni tashlab qaysar Frenki bilan topishib organiga ikki oy bo'ldi. Hozir u Bruklinda, Frenkiga yaqin joyda yashayapti.

Shu payt u qornini changallagancha kula boshladi. Nihoyat u kulgidan to'xtadi va men undan buning nimasi kulgili ekanini so'ravdim.

-Nega kulgili bo'lmasin,-dedi Jo.-Bu makaronchi Rozaga qancha pul sarflashi kerakligini bilganida qanaqa ahvolga tushishini tasavvur qilyapman. To'g'ri, Frenkining Bruklinda biznesi bor, ammo Roza uni tashlab ketmasligi uchun ancha pul sarflashiga to'g'ri keladi.

U shunday vaziyatda ham hazil tuyg'usini yo'qotmaganligi meni hayron qoldirdi.

Ma'lum bo'lshicha, qaysar Frenki Rozani u erga tegishidan oldin ham yaxshi tanigan. U tez-tez "Xot Boks" bariga kelib turgan va hatto Roza erga tekkanidan keyin ham u bilan ba'zan uchrashib turgan. Frenkining biznesdagi ishlari yurishib ketgach esa ular kunora ko'risha boshlashgan. Jo albatta bu haqda bilmagan. Uning o'sha paytlarda ishi orqaga ketgan va xotiniga u xohlagan hamma narsani sotib olib berishga qurbi yetmagan. Roza esa o'zi istagan narsani olib bermagan erkaklarga toqat qilolmaydi. Jo qaysar Frenkiga qo'pol hazil qiladi, Frenki esa Rozani Bruklinga olib ketadi.

-Nima ham derdim,-dedim uning hikoyasini eshitib bo'lgach,-bunaqa gaplarni eshitish yoqimsiz. Senga achinaman...

-Yaxshisi, qaysar Frenkiga achin,-quvnoqlik bilan javob qaytardi Jo.-Agar bu senga kamlik qilsa, Rozaga ham achin.

Nihoyat Jo uyiga ketishga taraddudlandi, ammo avval tamaki do'konidagi telefondan Mindi restoraniga qo'ng'iroq qildi. U ayollar ovozi bilan Peggy Joys ekanligini, qaysidir bir manzilga to'y marosimi uchun olti yuz dona buterbrodga buyurtma bermoqchiligin aytdi. Albatta, unday manzilning o'zi yo'q, bo'lgan taqdirda ham hech kim uncha buterbrodga pul to'lashni istamaydi.

Keyin Jo mashinasiga o'tirdi va uyiga jo'nadi.

Bir necha kundan keyin Bruklinda Joning pivoxonasida ishlaydigan ikki yigitning qopga solingen jasadi topilganini gazetada o'qib qoldim. Politsiyadagilar ular qaysar Frenkining biznesiga xalaqit berishga urinishganini aytishardi. Ammo birorta ham politsiyachi ularni Frenki o'ldirganini ta'kidlay olmasdi. Chunki bunga hech qanday dalil yo'q edi.

Qop bilan bog'liq voqeа shunchaki ish emas, bunga mahorat kerak. Odamni qopga tiqish uchun avval uni uxlatish kerak, axir qaysi ahmoq qopga o'zi tushadi. Buning uchun uyqu dori berish kerak deyishadi, ammo haqiqiy mutaxassislarning fikricha, qopga solmoqchi bo'lgan odamingning boshiga to'qmoq bilan yaxshilab tushirish kifoya.

Xullas, odamning bo'yniga sirtmoq solishadi va arqonning bir uchini tizzalari orqasidan o'tkazib bog'lashadi. Uni shu holatda qopga tiqishadi va biror joyga tashlab ketishadi. Bechora o'ziga kelgach, qopdan chiqishga urinadi. U bukilgan tizzalarini to'g'rilamoqchi bo'ladi va bo'ynidagi sirtmoq tortilib, bir ozdan keyin bo'g'ilib o'ladi.

Ikki kundan keyin Clinton-stritda sayr qilib yurgan ikki bruklinlikni noma'lum shaxslar bo'g'ib o'ldirishganini eshitdim.

Aytishlaricha, o'lganlar qaysar Frenkining do'stlari, ularni o'ldirganlar esa garlemliklar ekan.

Tez orada Bruklinda g'alati voqealar yuz berayotganini tushundim. Bir haftadan keyin u yerda qopga solingen yana bir jasad topildi. Bu safargi qurban hazilkash Joning akasi Freddi edi.

Ish shunga borib yetdiki, bruklinliklar kartoshka solingen qopni o'zлari ochgani qo'rqib qolishdi va buning uchun politsiya chaqiradigan bo'lishdi.

Bir kuni kechqurun hazilkash Joni ko'rib qoldim. Bu safar u yolg'iz o'zi o'tirardi va uning nimadandir tashvishda ekanligini ko'rib xalaqit bergim kelmadi. Uning yonidan o'tib ketmoqchi edim, qo'limdan tutib to'xtatdi. Unga akasining o'limi sababli ta'ziya bildirdim.

This is not registered version of TotalDoc Converter
 -Nima deyishimni, Freddidan qo'shiq qildi, dedi Jo. Roza uni Bruklinga taklif qilgan. U Freddidan meni Roza bilan rasman ajrashishga unatishni so'ramoqchi bo'lgan. Bechora akam Roza ikkimizni yarashtirmoqchi bo'lgandi, buning o'miga qopga solindi. Uni Rozanikidan qaytayotganida ushlashgan. Bunda Rozaning ham qo'lli bor deyolmayman, ammo akam uning aybi bilan o'ldi. Jo kului, ammo uning kulgisi menga g'alati tuyuldi. Jo gapini davom ettirdi:

-Men qaysar Frenkiga zo'r hazil qilmochiman.

-Yo'q, Jo,-dedim men.-Yaxshisi, uni unut. Unda hazil tuyg'usi yo'q.

-E yo'q,-e'tiroz bildirdi Jo,-menden Rozani tortib olishga hazil tuyg'usi bo'ldi-yu. Eshitishimcha, u Rozani qattiq sevarkan. Men zo'r hazil tayyorlab qo'yanman-Frenkining oldiga qopda o'zim boraman.

Uning nimani mo'ljallaganini tushunmadim.

-Sent-luislik og'aynim qaysar Frenkining qoplar bilan bog'liq buyurtmalarini bajaradi. Uning ismi Roups Makgonigl. U Freddi menin akam ekanligini eshitib g'azabga mindi va Frenkiga hazil qilishimda yordam bermoqchi. Kecha Frenki Roupsni uyiga chaqirgan va meni qopga solib uning oldiga olib kelishini so'rigan. U Rozadan akamning nima deganini eshitgan. Men akamga u bilan hech qachon ajrashmasligimni aytgandim. Xullas, Roups menga hamma gapni aytib berdi va men uni yana Frenkining oldiga jo'natib yubordim. Men ertaga kechqurun Bruklinda bo'laman va Roups meni qiyalmasdan qopga joylaydi.

-Qaysar Frenkining oldiga qopda borishdan xavfliroq narsa bo'lmasa kerak,-dedim.-Bu qanaqa hazil ekanligiga tushunmadim.

-Nimasini tushunmaysan!-xitob qildi Jo.-Hazilim shuki, men qopda qo'l-oyog'im bog'liq holda bo'lmayman va ikkala qo'limda to'pponcha bo'ladi. Qopni ochganida ro'parasida to'pponcha bilan men paydo bo'lsm Frenki qanday ahvolga tushishini ko'z oldingga keltirib ko'r.

Haqiqatan ham Jo ikkita to'pponcha ushlab qaysar Frenkining oldida paydo bo'lganida uning qanday taajjubga tushishini tasavvur qilsa bo'ladi.

-Aytgancha,-dedi Jo,-Roups Makgonigl ham har ehtimolga qarshi o'sha yerda bo'ladi.

Jo ketdi, men bo'lsm uning qop ichidan to'pponcha bilan chiqishini tasavvur qilib iljaydim.

Shundan keyin Jo bilan uchrashmadim, ammo bu voqealma nima bilan tugaganini aytib berishdi.

Roups keltirgan qopni qaysar Frenkining o'zi yerto'laga olib tushibdi. U yonidan to'pponcha olib Jo yotgan qopni ochib o'tirmasdan unga qarata oltita o'q uzibdi.

Aytishlaricha, yerto'laga politsiyachilar bostirib kirib uni qotillikda ayblastaganida Frenkining ko'zi chanog'idan chiqib ketay debdi. Ma'lum bo'lishicha, Roupsdan Joning rejasid haqida ma'lumot olgan qaysar Frenki qopdagagi qurbanini bir yoqli qilmochchi bo'lgan. Tabiiyki, Roups bu haqda Joga aytgan va u o'zining hech kimda yo'q hazilkashlik mahoratini ishga solgan.

Qaysar Frenkiga olib borilgan qopga esa albatta Jo emas, balki oyoq-qo'lli bog'langan, og'ziga latta tiqilgan Roza solingen ekan.

Rus tilidan Dilshodbek Asqarov tarjimasি